


Xorazm viloyatida turizm va dam olish sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari



Bugunga kelib turizmning hayotimizda naqadar muhim o'rin tutib, davlat miqyosida ustivor yo'nalishlardan biriga aylanayotganini sohada olib borilayotgan o'zgarishlar, qabul qilinayotgan qonunlar, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining tashkil etilishi kabi islohotlarda yaqqol ko'ryapmiz.


Quyidagi jadvalda Xorazm viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar va ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni va mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari haqida ma'lumot keltirilgan.

2017 yilda
turistik faoliyatni amalga
oshiruvchi tashkilotlar va ular
tomonidan xizmat ko'rsatilgan
shaxslar soni



2017 yilda faoliyat yuritgan turistik firmalar soni 8 tani tashkil etib, ulardan 7tasi (87,5%) kichik korxonaga va mikrofirmalardan iborat

1-rasm



Xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni 311,9 ming nafarga etib, ulardan 51,3 ming nafarni (16,4%) xorijiy tashrif buyuruvchilar, 260,7 ming nafarni (83,6%) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tashkil etdi.

2-rasm



2017 yilda sotilgan sayyohlik yo`llanmalarining soni va qiymati

Jadval 1

	Soni, birlik	Qiymati, mln.so`m
Sotilgan sayyohlik yo`llanmalari jami	2999	842,2
Ulardan bevosita aholiga	2999	842,2
shu jumladan:		
O`zbekiston hududi bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga	199	154
Chet el mamlakatlari bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga	67	16,6
ulardan MDH mamlakatlari bo`yicha	14	4,3
O`zbekiston xududi bo`yicha MDH fuqarolariga	2667	601,8
O`zbekiston xududi bo`yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga	66	69,9

2017 yilda sayyohlik yo`llanmalarining 100,0 foizi (2999 dona) bevosita aholi tomonidan sotib olingan. Jumladan Respublika hududi bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga 199 dona (6,6 foiz), MDH fuqarolariga 14 dona (0,5 foiz), boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga 66 dona (2,2 foiz) yo`llanma sotilgan. Shuningdek chet el mamlakatlari bo`yicha O`zbekiston fuqarolariga 67 dona yo`llanma sotilgan.


2017 yilda mehmonxona va shunga o`xshash joylashtirish vositalari



	Mehmonxona va shunga o`xshash joyiashtirish vositalari soni.birlik	Ulardagi joylar.ming o`rin	Joylashtirilgan shaxslar.ming kishi
Xorazm viloyati	51	2,2	87,5

2017 yilda Xorazm viloyatiga kelgan shaxslarning safar maqsadlari bo'ycha taqsimoti, kishi

3-rasm



2017 yilda Xorazm viloyatiga kirib kelgan shaxslarning 72,1 foizi (63047 nafar) ta'til, bo'sh vaqt va dam olish yuzasidan, 0,7 foizi (637 nafar) qarindoshlarini yo'qlash uchun, 0,1 foizi (100 nafar) ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida, 3,7 foizi (3207 nafar) ziyorat qilish maqsadida, 0,2 foizi (162 nafar) boshqa shaxsiy maqsadida, 23,2 foizi (20298 nafar) ish yuzasidan kelgan.

Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soxa statistikasi bo'limi
Nashr uchun ma'sul K. Ataeva
Tel: (0371)224-65-21